

# **Yoshlar festivalida viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi**



Yoshlar festivalida viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi  
Bugun Surxondaryoda "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida  
boshlangan festival doirasida sektorlar rahbarlari – viloyat prokurori Sadriddin Turdiev  
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida, ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i  
Abduvohid Ismoilov "Yoshlar markazi"da, davlat soliq boshqarmasi boshlig'i Sirojiddin  
Eshmatov "Matbuot uyi"da yigit-qizlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Shuningdek,  
"Yoshlar va tadbirkorlar" uchrashuvi, yosh tadbirkorlar ishlab chiqargan mahsulotlar  
ko'rgazmasi, "Quvnoqlar va zukkolar" baxshichilik, "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovlari,  
milliy sport o'yinlari, otda yurish, otni yogurtirish, ot egarlash musobaqasi singari  
tadbirlar ham yuksak saviyada o'tkazilmoqda. Eslatib o'tamiz, "Yoshlar oyligi"  
doirasida mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlangan festivalda viloyat bo'yicha 325  
ta turli tadbir o'tkaziladi.

Festivalъ joriy yilning 17 iyunъ kuni yakunlanadi.